

ELEKTRON QURILMALAR VA MAISHIY TEXNIKANI SUG'URTALASH BO'YICHA OMMAVIY OFERTA

Mazkur Ommaviy oferta (keyingi o'rinlarda — "Oferta") "MY-INSURANCE" aksiyadorlik jamiyati sug'urta tashkiloti (keyingi o'rinlarda — "Sug'urtalovchi") tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning cheklanmagan doirasiga ularning elektron qurilmalari va maishiy texnikasini sug'urta qilish mahsuloti bo'lib, ushbu Ofertada ko'rsatilgan shartlar asosida Sug'urtalovchining rasmiy veb-sayti yoki internet xizmati (mobil ilova, avtomatlashtirilgan axborot tizimi) orqali tuzish bo'yicha yo'naltirilgan taklifidir.

Ushbu Oferta sug'urta polisi rasmiylashtirilgan sanada amalda bo'lgan "Elektron qurilmalar va maishiy texnika"ni sug'urtalash qoidalari (keyingi o'rinlarda — "Sug'urta qoidalari") bilan tartibga solinadi. Sug'urta qoidalari va mazkur Oferta Sug'urtalovchining rasmiy www.myinsurance.uz saytida hamda uning internet xizmatlarida mavjud.

Mazkur Oferta shartlarini qabul qilish va belgilangan sug'urta mukofotini to'lash uning shartlariga rozilik (aksept) bildirish hamda Sug'urtalanuvchining elektron qurilmalar va maishiy texnikani sug'urtalash shartnomasini tuzishga roziligi hisoblanadi. Sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'langanligi tasdiqlangach, unga elektron Sug'urta polisi yuboriladi va Sug'urta shartnomasi tuzilgan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq, mazkur Oferta shartlarini so'zsiz qabul qilish (aksept qilish) orqali Sug'urta qildiruvchi:

- Oferta shartlariga, jumladan sug'urta shartlariga o'z roziligini bildiradi;
- sug'urta polisini shakllantirish uchun taqdim etilgan shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash, shu jumladan tizimlashtirish, saqlash, foydalanish, taqdim etish, tarqatish, 5 yil muddatga sug'urta faoliyatini amalga oshirish maqsadida ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan yoki avtomatlashtirilmagan usulda qayta ishlash yo'li bilan uzatish, shuningdek, ichki hujjat aylanishini ta'minlash bo'yicha sug'urta shartlariga ko'ra o'z zimmalariga olgan majburiyatlarni bajarish uchun ularni uchinchi shaxslarga o'tkazishga roziligini ifodalaydi.

Agar sug'urta mukofoti to'liq to'lanmagan bo'lsa, shuningdek, sug'urtalovchi tomonidan akseptni bekor qilish to'g'risidagi bildirishnoma akseptga qadar yoki u bilan bir vaqtda olingan bo'lsa, aksept olinmagan hisoblanadi. "Sug'urta shartnomasi" va "Sug'urta polisi" atamalari bundan keyin matnda ushbu elektron hujjatga nisbatan bir xil ma'noga ega.

OMMAVIY OFERTA SHARTLARI ASOSIDA TUZILADIGAN ELEKTRON QURILMALAR VA MAISHIY TEXNIKANI SUG'URTALASH SHARTNOMASI (POLISI)NING MUHIM SHARTLARI

1-BO'LIM. ASOSIY TA'RIFLAR

1.1. Mazkur Ofertada qo'llaniladigan asosiy atamalar:

Sug'urtalovchi – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq va O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan berilgan litsenziya asosida sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi "MY-INSURANCE" aksiyadorlik jamiyati sug'urta tashkiloti.

Sug'urtalanuvchi – tashkiliy-huquqiy shakli va mulkchilik shaklidan qat'i nazar yuridik shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor, shuningdek muomala layoqatiga ega jismoniy shaxs bo'lib, Sug'urtalovchi bilan Oferta va Sug'urta qoidalari asosida sug'urta shartnomasini tuzgan hamda belgilangan sug'urta mukofotini to'lagan shaxs.

Naf oluvchi — qonun hujjatlari yoki shartnoma asosida sug'urtaga qabul qilingan elektron qurilma yoki maishiy texnikaning saqlanishidan manfaatdor bo'lgan shaxs hisoblanadi. Sug'urta shartnomasi uning foydasiga tuziladi hamda sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda, mazkur Ofertada belgilangan tartibda, sug'urta to'lovi amalga oshiriladi.

Sug'urta qoidalari – Sug'urtalovchi tomonidan tasdiqlangan, Sug'urtalovchining ofislarida ko'rib chiqish, shuningdek <https://myinsurance.uz/> rasmiy veb-saytida yoki internet xizmatlaridan yuklab olish yoki QR-kodni skanerlash orqali ko'rib chiqish uchun mavjud bo'lgan sug'urta shartlariga muvofiq shartnoma

tuziladi. Qoidalar shartlariga ko'ra, sug'urta shartnomasi Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchiga uning ariza-so'rovnomasi yoki og'zaki arizasi asosida sug'urta polisini berish yo'li bilan tuziladi.

Sug'urta polisi – Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urtalanuvchiga (yoki Naf oluvchiga) beriladigan, sug'urta shartnomasi tuzilganligini tasdiqlovchi hamda sug'urta shartlari, sug'urta summasi, sug'urta mukofoti, amal qilish muddati, sug'urta hodisalari va boshqa muhim shartlarni o'z ichiga olgan hujjat.

Sug'urta davri - Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofotini o'z vaqtida to'lash sharti bilan sug'urta polisi amal qiladigan vaqt davri. Sug'urtalovchi sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta muddati davomida sodir bo'lgan sug'urta hodisalari uchun javobgar bo'ladi.

Sug'urtalangan mol-mulk – sug'urtaga qabul qilingan va sug'urta shartnomasida (polisda) ko'rsatilgan quyida keltirilgan yangi yoki foydalanilgan (ikkinchi qo'l) ko'chma qurilmalar;

Elektron qurilmalar – elektr energiyasi manbai asosida ishlaydigan hamda elektron komponentlar (mikroprotessorlar, integral sxemalar, sensorlar va boshqa elektron elementlar) yordamida axborotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash yoki uzatish funksiyalarini bajaruvchi texnik vositalar hisoblanadi.

Elektron qurilmalarga, shu jumladan, mobil aloqa vositalari (smartfonlar), planshet kompyuterlar, noutbuklar, shaxsiy kompyuterlar, televizorlar, audio va video texnika, shuningdek, boshqa shunga o'xshash funksional xususiyatlarga ega bo'lgan qurilmalar kiradi.

IMEI (International Mobile Equipment Identity) — mobil aloqa qurilmasini yagona tartibda identifikatsiya qilish uchun ishlab chiqaruvchi tomonidan beriladigan va xalqaro standartlarga muvofiq shakllantiriladigan noyob identifikatsiya raqami hamda IMEI sug'urtalangan qurilmani aniqlash va identifikatsiya qilishning asosiy rekvizitlaridan biri hisoblanadi.

Maishiy texnika – aholi tomonidan maishiy (kundalik turmush) ehtiyojlarni qondirish maqsadida foydalaniladigan, elektr energiyasi, gaz yoki boshqa energiya manbalari asosida ishlaydigan texnik vositalar majmui hisoblanadi.

Maishiy texnikaga, shu jumladan, sovutgichlar, kir yuvish mashinalari, idish yuvish mashinalari, gaz va elektr plitalari, pechlar, mikroto'lqinli pechlar, konditsionerlar, changyutgichlar, suv isitgichlar hamda boshqa shunga o'xshash funksional vazifani bajaruvchi qurilmalar kiradi.

Sug'urtalangan mol-mulkning nobud bo'lishi sug'urta shartnomasi predmeti bo'lgan mol-mulkning sug'urta hodisasi natijasida to'liq yo'qolishi, tiklab bo'lmas darajada shikastlanishi yoki undan belgilangan maqsadda foydalanish imkoniyatining butunlay yo'qolishi holati hisoblanadi. Bunday holatda sug'urta to'lovi sug'urta summasi miqdorida, shartsiz franshiza chegirilgan holda to'lanadi.

Sug'urta summasi – sug'urta shartnomasi doirasida Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urtalanuvchi (yoki Naf oluvchi) foydasiga sug'urta to'lovlarini amalga oshirish maksimal miqdori.

Sug'urta hodisasi – sug'urta hodisasi belgilariga ega bo'lgan va sug'urta muddati davomida sodir bo'lgan voqea. Sug'urta voqeasi – sug'urta polisida nazarda tutilgan, yuzaga kelishi Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash majburiyatining paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan sug'urta hodisasi.

Mazkur Ofertada nazarda tutilgan sug'urta hodisasi yuz berganda, Sug'urtalovchi Sug'urtalanuvchi/Naf oluvchiga zarar miqdorini Sug'urta polisida belgilangan sug'urta summasi doirasida, sug'urtalangan mol-mulkning haqiqiy qiymati bilan sug'urta summasi o'rtasidagi nisbatni hisobga olgan holda qoplaydi. Sug'urta to'lovi amalga oshirilgan paytdan boshlab Sug'urtalovchi o'z majburiyatlarini to'liq bajargan hisoblanadi.

Sug'urta to'lovi – sug'urta hodisasi yuz berganda to'lanadigan pul mablag'i yoki ta'mirlashni tashkil etish yoki o'xshash qurilma berish shaklidagi kompensatsiya.

Avtorizatsiyalangan servis markazi — Sug'urtalovchi bilan xizmat ko'rsatish shartnomasiga ega bo'lgan, texnika, elektronika, uskuna va boshqa mol-mulklarni servis qo'llab-quvvatlash, texnik xizmat va ta'mirlash bilan shug'ullanuvchi tashkilot (korxonalar).

Sug'urta hodisasi bo'yicha murojaat – servis markazi tomonidan Sug'urtalovchiga yuboriladigan murojaat.

Shartsiz franshiza – zararlarining Sug'urtalanuvchi zimmasida qoladigan qismi.

Sug'urta hududi – sug'urta shartnomasida (sug'urta polisida) ko'rsatilgan, sug'urta amal qiladigan hudud, O'zbekiston Respublikasi.

Maxsus atamalar:

Tashqi mexanik ta'sir - Sug'urtalangan mol-mulk yuzasiga tashqi obyektning yoki hayvonlarning lahzalik ta'siri natijasida yetkazilgan zarar. Bunga mol-mulkning tushib ketishi, shikastlanishi yoki nobud bo'lishi kiradi.

Suyuqlikning ta'sir ko'rsatishi - Sug'urtalangan mol-mulkning to'liq yoki qisman suvga yoki boshqa suyuqlikka botishi, shuningdek, suyuqlik tushishi natijasida mol-mulkka yetkazilgan zarar.

Elektr tokining ta'sir ko'rsatishi - Sug'urtalangan mol-mulkka elektr tokining kuchi yoki chastotasining me'yordan yuqori o'zgarishi, zoriqishi natijasida yetkazilgan zarar. Bunga mol-mulkning shikastlanishi yoki nobud bo'lishi kiradi.

Displey – elektron qurilmaning tarkibiy qismi bo'lib, axborotni vizual shaklda (matn, tasvir, grafik va boshqa ko'rinishlarda) aks ettirish uchun mo'ljallangan ekran hisoblanadi.

Displey shikasti - Sug'urtalangan elektron qurilmalarning displey qismining mexanik yoki tashqi ta'sir natijasida sinishi, yorilishi yoki sensor funksiyasining ishlamasligi natijasida yetkazilgan zarar. Chizilishlar, ishqalanish izlari va boshqa estetik nuqsonlar sug'urta qoplamasiga kirmaydi.

Tabiiy yong'in – tabiiy ofatlar natijasida kelib chiqqan yong'in. Bu tabiiy omillar, masalan chaqmoq yoki quruq ob-havo sharoitlari natijasida yuzaga keladigan yong'inlar.

Portlash - Qisqa vaqt ichida cheklangan hajmdagi katta miqdordagi energiyaning ajralishi natijasida hosil bo'ladigan gazlar yoki bug'larning vayron qiluvchi ta'siri bilan kelib chiqadigan zarar. Jarayon fizika va kimyo moddalarning tez o'zgarishini o'z ichiga oladi, natijada atrof-muhitga vayron qiluvchi oqibatlariga olib keluvchi zarbali to'lqin hosil bo'ladi va tarqaladi.

Uchinchi shaxslarning g'ayrihuquqiy harakatlari — o'g'rilik, bezorilik, talonchilik, bosqinchilik yo'li bilan sug'urtalangan mol-mulkni talon-taroj etish, qasddan sug'urtalangan mol-mulkni nobud qilinishi va shikast yetkazilishi.

1.2. Ushbu hujjatda foydalanilgan barcha ta'riflar ushbu Ofertada ular uchun belgilangan ma'noga ega. Oferta va sug'urta Qoidalarida ta'rif (termin) qiymati bo'lmagan taqdirda, ularning qiymati O'zbekiston Respublikasining normativ huquqiy hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

2- SUG'URTA OB'EKTI VA SUB'EKTLARI

2.1. Sug'urta obyektlari — amaldagi qonunchilikka zid bo'lmagan holda, Sug'urtalanuvchi (Naf oluvchi)ning mulkiy manfaatlari bo'lib, ular Sug'urtalanuvchi yoki sug'urta shartnomasida (polisda) ko'rsatilgan boshqa Naf oluvchining egaligida, foydalanishida yoki tasarrufida bo'lgan elektron qurilma yoki maishiy texnikaning nobud bo'lishi yoki shikastlanishi bilan bog'liq.

Sug'urta polisida identifikatsiya ma'lumotlari ko'rsatilgan, sug'urta polisi uchun to'lov amalga oshirilgan kunda xarid qilingan faqat bitta elektron qurilma yoki maishiy texnikaga nisbatan sug'urta himoyasining tatbiq etilishi, sug'urta polisini rasmiylashtirishdagi muhim shart hisoblanadi. Sug'urtalangan mol-mulkning to'lov kassa cheki, tovar chekida aks ettirilishi shart. Sug'urtalangan mol-mulk xarid qilinganligini va sug'urta polisi uchun sug'urta mukofoti to'langanligini tasdiqlovchi kassa cheklarning sanalari aynan bir xil bo'lishi shart.

2.2. Sug'urta sub'ektlari Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi) hisoblanadi.

3-BO'LIM. SUG'URTA HODISASI

3.1. Mazkur Oferta bo'yicha quyidagi holatlar natijasida sug'urtalangan mol-mulkning nobud bo'lishi (yo'qolishi) yoki shikastlanishi sug'urta hodisasi hisoblanadi;

- yong'in, portlash;
- elektr toki ta'siri;
- suyuqlik ta'siri;
- tashqi mexanik ta'sir;
- uchinchi shaxslarning g'ayrihuquqiy harakatlari

Bunda Sug'urtalovchi Sug'urtalanuvchiga (Naf oluvchiga) sug'urta summasi doirasida va belgilangan shartsiz franshizani hisobga olgan holda sug'urtalangan elektron qurilmalar va maishiy texnikani tiklash yoki ta'mirlash bilan bog'liq xarajatlarni qoplaydi.

4-BO'LIM. ISTISNOLAR

4.1. Quyidagi holatlar natijasida yuzaga kelgan zararlar Sug'urtalovchi tomonidan qoplanmaydi:

a) sug'urtalangan mol-mulkning sug'urta hududidan tashqarida yoki noma'lum, aniqlanmagan holatlarda (vaqt, joy yoki boshqa sharoitlar aniqlanmagan) yo'qolishi, nobud bo'lishi yoki shikastlanishi;

b) uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari haqida sug'urta hodisasi sodir bo'lgan paytdan boshlab 24 (yigirma to'rt) soat ichida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berilmagan bo'lsa;

v) sug'urtalangan mol-mulk erkin kirish mumkin bo'lgan joyda qoldirilgan bo'lsa (qulflanmagan bino yoki transport vositasida, ochiq joyda) va binoga kirib kelish yoki transport vositasidan o'g'irlik holati huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan tasdiqlanmagan bo'lsa;

g) Sug'urtalanuvchining qasddan harakatlari, shuningdek mol-mulkdan maqsadga muvofiq bo'lmagan foydalanish;

d) sug'urtalangan mol-mulkni hamkor bo'lmagan servis markazlarida ta'mirlash;

e) tabiiy jarayonlar: eskirish, oksidlanish, zanglash, qarish, chirish, achish, mog'or yoki zamburug' hosil bo'lishi, kondensat, namlik, qurish, yemirilish, rang o'chishi, issiqlik izolyatsiyasining pasayishi va boshqalar;

j) sug'urtalangan mol-mulkning ish va funksional layoqatiga ta'sir ko'rsatmaydigan, shuningdek uning texnik xususiyatini yomonlashtirmaydigan va bevosita vazifasi bo'yicha foydalanishga to'sqinlik qilmaydigan kosmetik qirilishlar, darz ketishlar, yoriqlar, tusining shikastlanishi va boshqa nuqsonlari;

z) ishlab chiqaruvchi ko'rsatmalariga zid ravishda o'rnatish, saqlash yoki foydalanish qoidalarining buzilishi (servis markazi hujjati bilan tasdiqlangan bo'lsa);

i) ishlab chiqaruvchi tomonidan tasdiqlanmagan yoki sertifikatlanmagan aksessuarlardan foydalanish natijasida yuzaga kelgan zarar;

k) ruxsatsiz ochish, malakasiz ta'mirlash izlari, kafolat plombalarining buzilishi, mustaqil ta'mirlash yoki modernizatsiya natijasidagi zararlar;

l) ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlariga kiradigan nosozliklar;

m) sug'urtalangan mol-mulkni aniqlashning imkoni bo'lmasa (masalan, seriya raqami o'chirilgan yoki o'zgartirilgan bo'lsa), bundan mustasno — hodisa sababli aniqlash imkoni bo'lmagan holatlar;

n) sug'urtalangan mol-mulkning suvga cho'kishi natijasida yo'qolishi;

o) elektr tarmoqlaridan noto'g'ri foydalanish, nosoz qurilmalarni ulash yoki ruxsat etilgan quvvatdan ortiq yuklama berish.

p) sug'urtalangan mol-mulkni aniq identifikatsiya qilish imkoniyati mavjud bo'lmasa, shu jumladan seriya yoki zavod raqami yo'q qilingan, o'zgartirilgan yoki o'chib ketgan bo'lsa, voqeaning xususiyati kuchi ostida bunday raqamning identifikatsiya qilina olinmasligi bilan bog'liq holatlar bundan mustasno;

r) Agar sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) voqea sodir bo'lgandan keyin shikastlangan sug'urtalangan mol-mulkni avtorizatsiyalangan servis markaziga taqdim etmasa, sug'urta hodisasi deb hisoblanmaydi

4.2. . Quyidagi holatlar sug'urta qoplamasi doirasiga kiritilmaydi va ular bo'yicha sug'urta to'lovi amalga oshirilmaydi:

a) displey yuzasida yuzaga kelgan chizilishlar, ishqalanish izlari va boshqa estetik nuqsonlar, agar ular qurilmaning funksional ishlashiga ta'sir ko'rsatmasa;

b) tabiiy eskirish, uzoq muddat foydalanish yoki ishlab chiqarish xususiyatlari bilan bog'liq nuqsonlar;

v) ishlab chiqaruvchi kafolati doirasida bartaraf etilishi lozim bo'lgan nuqsonlar;

g) foydalanuvchi tomonidan foydalanish qoidalariga rioya etilmasligi, jumladan, ruxsat etilmagan ta'mirlash yoki modifikatsiya qilish oqibatida yuzaga kelgan shikastlanishlar;

d) displeyning ifloslanishi, rang o'zgarishi yoki yorqinlik pasayishi kabi estetik va funksional bo'lmagan o'zgarishlar.

4.3. Sug'urtalovchi quyidagi holatlar natijasida yuzaga kelgan sug'urta hodisasi uchun javobgarlikdan ozod etiladi:

- a) urush, harbiy harakatlar, bosqin, fuqarolar urushi;
- b) qo'zg'olon, ommaviy tartibsizliklar, milliy miqyosdagi ish tashlashlar;
- v) terrorchilik harakatlari;
- g) yadro portlashi, radiatsiya yoki radioaktiv zararlanish;
- d) davlat organlari qaroriga ko'ra mol-mulkni musodara qilish, hibsga olish yoki yo'q qilish.

4.3. Sug'urtalovchi mazkur Ofertada ko'rsatilmagan hodisalar bo'yicha majburiyat olmaydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda ham sug'urta to'lovidan ozod etiladi.

4.4. Agar Sug'urtalanuvchi/Naf oluvchi mazkur Oferta yoki Sug'urta qoidalarini buzgan bo'lsa yoki zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan o'z talab huquqidan voz kechgan bo'lsa (yoki bu huquqni amalga oshirish uning aybi bilan imkonsiz bo'lib qolgan bo'lsa), Sug'urtalovchi sug'urta to'lovini amalga oshirmaydi.

5-BO'LIM. SUG'URTA PULI VA FRANSHIZA SUG'URTA MUKOFOTI, UNI TO'LASH TARTIBI VA SHAKLI

5.1. Sug'urta summasi Sug'urtalanuvchi va Sug'urtalovchi o'rtasida sug'urta shartnomasi tuzilayotganda (polisi rasmiylashtirilganda) har bir sug'urtalangan elektron qurilma yoki maishiy texnikaning har bir birligi bo'yicha kelishuv asosida belgilanadi va u shartnoma tuzilgan kundagi har bir mol-mulkning sug'urta (haqiqiy) qiymatidan oshmasligi kerak.

Sug'urta summasi — sug'urta shartnomasi (polis) amal qilgan davr mobaynida Sug'urtalovchining Sug'urtalanuvchi oldidagi to'lovining maksimal chegarasi hisoblanadi.

5.2. Har bir elektron qurilma yoki maishiy texnika uchun sug'urta mukofoti sug'urta summasi va Sug'urtalovchining polis rasmiylashtirish paytidagi amaldagi bazaviy yillik tariflari asosida hisoblanadi. Elektron sug'urta polisi rasmiylashtirilganda sug'urta mukofoti miqdori Sug'urtalovchining rasmiy veb-saytida, mobil ilovasida yoki axborot tizimida real vaqt rejimida ko'rsatiladi.

5.3. Agar sug'urta shartnomasida boshqacha ko'rsatilmagan bo'lsa, sug'urta mukofoti sug'urta davri uchun to'liq va bir martalik tarzda Sug'urtalovchining hisob raqamiga to'lov tizimlari operatorlari orqali o'tkazish yoki pul mablag'larini jo'natish yo'li bilan to'lanadi.

5.4. Sug'urta shartnomasi shartsiz franshiza hisobga olingan holda tuzilishi mumkin. Shartsiz franshiza miqdori sug'urta shartnomasida (polisda) ko'rsatiladi.

6-BO'LIM. SUG'URTA SHARTNOMASINING (SUG'URTA POLISINING) KUCHGA KIRISHI, AMAL QILISH MUDDATI VA BEKOR BO'LISHI

6.1. Sug'urta shartnomasi tuzilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajarguniga qadar amal qiladi.

6.2. Sug'urta davri (muddati) sug'urta polisida belgilanadi va 1 yildan oshmasligi kerak.

6.3. Sug'urtalovchining sug'urta to'lovi bo'yicha majburiyatlari sug'urta mukofoti Sug'urtalovchining hisob raqamiga kelib tushgan kunning soat 00:00 dan kuchga kiradi va sug'urta polisida sug'urta davrining tugash kuni sifatida ko'rsatilgan kunning soat 24:00 gacha amal qiladi.

6.4. Sug'urta polisi tomonlardan birining yozma arizasi yoki elektron xabarnomasi asosida bekor qilinishi mumkin, agar bu haqda kutilayotgan bekor qilish sanasidan kamida 30 (o'ttiz) kun oldin xabar berilgan bo'lsa.

6.5. Sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) quyidagi hollarda bekor qilinadi:

- a) sug'urta davrining tugashi;
- b) sug'urta shartnomasi kuchga kirgandan so'ng sug'urta hodisasi yuz berish ehtimoli yo'qolsa va sug'urta sug'urta hodisasi bo'lmagan boshqa holatlar tufayli to'xtatilgan bo'lsa;
- v) Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urtalanuvchi tomonidan bildirilgan birinchi sug'urta hodisasi bo'yicha sug'urta to'lovi amalga oshirilganda;

- g) Sug'urtalanuvchining sug'urta shartnomasidan (polisidan) voz kechishi;
- d) Sug'urtalanuvchi va Sug'urtalovchi o'rtasidagi kelishuv asosida sug'urta shartnomasini (polisni) bekor qilish;
- e) sug'urta shartnomasi (polisi) kuchga kirgandan so'ng sug'urta hodisasi yuz berish ehtimoli yo'qolsa va sug'urta xatari sug'urta hodisasi bo'lmagan boshqa holatlar tufayli to'xtatilgan bo'lsa;
- j) Sug'urtalanuvchi — yuridik shaxs tugatilganda, Sug'urtalanuvchi — yakka tartibdagi tadbirkor faoliyati to'xtatilganda, Sug'urtalanuvchi — jismoniy shaxs vafot etganda;
- z) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va mazkur Ofertada nazarda tutilgan boshqa hollarda.

6.6. Sug'urtalanuvchi sug'urta shartnomasidan (polisidan) muddatidan oldin voz kechgan taqdirda, to'langan sug'urta mukofoti qaytarilmaydi.

7-BO'LIM. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

7.1. Sug'urtalanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

- a) sug'urta polisida, Ofertada, Qoidalarda ko'rsatilgan hollarda sug'urta to'lovini olish;
- b) sug'urta to'lovi rad etilgan taqdirda, Sug'urtalovchidan ushbu qarorning asoslantirilgan izohini olish;
- v) sug'urta polisi amal qilish davrida yo'qolgan bo'lsa, yozma ariza topshirgandan so'ng sug'urta polisining dublikatini olish;
- g) sug'urta qilingan mol-mulkka bo'lgan huquqdan, shu jumladan mol-mulkning yaroqli qoldiqlaridan Sug'urtalovchi foydasiga voz kechish, agar talab sug'urta summasi doirasida qondirilsa (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 958-moddasiga muvofiq).

7.2. Sug'urtalanuvchi majbur:

- a) sug'urta shartnomasini Naf oluvchi foydasiga tuzishda uni sug'urta shartnomasi bo'yicha huquq va majburiyatlari bilan tanishtirish;
- b) yong'inga qarshi xavfsizlik qoidalari va texnik ekspluatatsiya qoidalari rioya qilish, sug'urtalangan mol-mulkning saqlanishi va yaroqliligini ta'minlash, qurilma joylashgan hududga erkin kirish imkoniyati bo'lmasligini (yopiq eshiklar, yopiq derazalar va h.k.) ta'minlash. Ushbu talab Naf oluvchiga ham taalluqlidir;
- v) sug'urta hodisasi belgilariga ega bo'lgan voqea haqida bilgan paytdan boshlab 24 (yigirma to'rt) soatdan kechiktirmasdan vakolatli organlarga xabar berish;
- g) ushbu Ofertaning 3.1-bandida ko'rsatilgan hodisa yuz berganda tegishli xulosa olish va/yoki shikastlangan sug'urtalangan mol-mulkni tiklash uchun Avtorizatsiyalangan servis markaziga murojaat qilish;
- d) sug'urta to'lovi amalga oshirilgandan so'ng Sug'urtalovchiga barcha hujjatlar va dalillarni topshirish hamda Sug'urtalovchiga unga o'tgan talab qilish huquqini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni taqdim etish (Sug'urtalanuvchi/Naf oluvchi tomonidan zarar yetkazgan shaxsga nisbatan);
- e) sug'urtalangan elektron qurilma yoki maishiy texnika uchun uchinchi shaxslardan kompensatsiya olingan barcha holatlar haqida Sug'urtalovchini xabardor qilish, shuningdek uchinchi shaxslar tomonidan qaytarilgan o'g'irlangan sug'urtalangan elektron qurilma yoki maishiy texnikani qabul qilib olish.

7.3. Sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

- a) ushbu Ofertada ko'rsatilgan majburiyatlarning, jumladan Sug'urtalanuvchiga yuklatilgan, biroq u tomonidan bajarilmagan majburiyatlarning bajarilishini Naf oluvchidan talab qilish, agar Naf oluvchi sug'urta to'lovi uchun talab bilan murojaat qilgan bo'lsa. Sug'urta shartnomasining Naf oluvchi foydasiga tuzilishi Sug'urtalanuvchini sug'urta shartlari bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi, agar tomonlar kelishuvida boshqacha nazarda tutilmagan bo'lsa yoki majburiyatlar shartnoma tuzilgan shaxs tomonidan bajarilgan bo'lmasa;
- b) sug'urtaga qabul qilinayotgan mol-mulkni ko'zdan kechirish, suratga olish (fotosurat talab qilish) va baholash, sug'urta shartnomasini tuzishda (sug'urta polisini rasmiylashtirishda) mol-mulk holatini tekshirish;

v) sug'urta hodisasi faktini va holatlarini, to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta to'lovi miqdorini aniqlash uchun Sug'urtalanuvchidan va vakolatli organlardan zarur ma'lumotlarni talab qilish, shuningdek mustaqil ravishda sug'urta hodisasi sabablarini va holatlarini aniqlash, sug'urta hodisasi yuzasidan ekspertiza o'tkazish;

g) yuz bergan hodisa bo'yicha zararlarni tartibga solish uchun ekspertlar va mutaxassislarni tayinlash yoki jalb qilish, sug'urta hodisasi belgilariga ega bo'lgan voqea bo'yicha ekspertiza o'tkazish uchun ixtisoslashtirilgan tashkilotni (servis markazini) belgilash;

d) agar sug'urtalangan mol-mulk yo'qolmagan/ o'g'irlanmagan (topilgan) bo'lsa, to'langan sug'urta to'lovi summasini qaytarishni talab qilish yoki Sug'urtalanuvchining mol-mulkini o'z mulkiga rasmiylashtirib olish;

e) ushbu Oferta, sug'urta Qoidalari va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda sug'urta to'lovini rad etish.

7.4. Sug'urtalovchi majbur:

a) Sug'urtalanuvchi (Naf oluvchi)ni sug'urta shartlari bilan tanishtirish va sug'urta shartnomasini (sug'urta polisini) tuzish tartibi hamda shartlarini tushuntirish;

b) sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda, ushbu Oferta bilan belgilangan tartibda sug'urta to'lovini amalga oshirish.

8-BO'LIM. DA'VOLARNI KO'RIB CHIQISH, ZARAR MIQDORINI ANIQLASH VA SUG'URTA TO'LOVINI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

8.1. Sug'urta polisi doirasida sug'urta tovonini to'lash bo'yicha sug'urtalovchiga asos bo'lishi mumkin bo'lgan, mazkur Qoidalarning 3.1. bandida nazarda tutilgan voqea sodir bo'lganda, sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) bunday voqea sodir bo'lgan paytdan e'tiboran 24 (yigirma to'rt) soat ichida sug'urtalovchiga quyidagi hujjatlarni ilova qilgan holda, yozma ariza bilan murojaat qilishi shart:

- sug'urta polisi;
- arizachining shaxsini tasdiqlovchi hujjat;
- sug'urtalangan mol-mulkni identifikatsiya qiluvchi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlar (kafolat taloni, texnik pasport va boshqalar), bundan tashqari — sug'urtalangan mol-mulkka nisbatan yuz bergan hodisa (masalan, yong'in, portlash) natijasida bunday hujjatlar yo'q qilingan holatlar mustasno.
 - tashqi mexanik ta'sir natijasida — Avtorizatsiyalangan servis markaziining xulosasi, unda foydalanish qoidalari buzilgan-buzilmaganligi, aniqlangan shikastlanish, uning xususiyati va sababi, shuningdek sug'urtalangan mol-mulkni ta'mirlash mumkinligi yoki mumkin emasligi (nobuf bo'lgan holatda) ko'rsatiladi;
 - yong'in yoki portlash holatida — O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining hududiy organidan olingan, yong'in/portlash faktini tasdiqlovchi, voqea sodir bo'lgan joy, sana va vaqt ko'rsatilgan asl ma'lumotnoma;
 - elektr toki ta'sirida — elektr ta'minoti tashkilotidan elektr tarmog'ida yuz bergan nosozlik (uzilish) bo'yicha ma'lumotnoma;
 - uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari holatida — vakolatli (huquqni muhofaza qiluvchi) organlardan olingan asl ma'lumotnoma bo'lib, unda amaldagi qonunchilik normalariga muvofiq sodir etilgan noqonuniy harakatning sana, joyi va huquqiy tasnifi hamda bunday harakat natijasida shikastlangan va/yoki yo'qolgan mol-mulk ro'yxati ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

8.2. Yuqorida sanab o'tilgan hujjatlardan tashqari, Sug'urtalovchi muayyan holatlarga qarab Sug'urtalanuvchi (Naf oluvchi)dan qo'shimcha hujjatlarni ham talab qilishga haqli, agar ushbu hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda, sug'urta hodisasi faktini va sabablarini aniqlash hamda zarar miqdorini belgilash imkonsiz bo'lsa.

8.3. Sug'urta tovonini, avtorizatsiyalangan servis markazining ekspert xulosasiga asosan aniqlanadi:

a) sug'urtalangan mol-mulk to'liq nobud bo'lganda (yo'qotilganda) — shartsiz franshiza hisobi bilan sug'urta pul chegarasida;

b) sug'urtalangan mol-mulk shikastlanganda — shartsiz franshiza hisobi bilan uni ta'mirlash (tiklash) xarajatlari miqdorida;

8.4. Sug'urta to'lovini amalga oshirish tartibi:

8.4.1. Sug'urtalovchi, sug'urta hodisasi belgilariga ega bo'lgan voqeaning keltirib chiqargan tafsilotlar, uning sabablari va yetkazilgan zarar miqdori to'g'risida fikrga ega bo'lish imkonini beradigan, mazkur Qoidalarning ushbu bo'limida nazarda tutilgan barcha zarur hujjatlarni taqdim etgan paytdan e'tiboran 10 (o'n) ish kunidan kechikmagan muddatda, quyidagi qarorlardan birini qabul qilishi shart:

- xabari berilgan voqeani sug'urta hodisasi deb tan olish to'g'risida. Bu holatda bunday qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran 5 (besh) ish kuni ichida sug'urtalovchi sug'urta dalolatnomasini rasmiylashtiradi va uni rasmiylashtirgan sanadan e'tiboran 15 (o'n besh) ish kuni ichida sug'urta to'lovini amalga oshiradi;

- sug'urta tovonini to'lashni rad etish to'g'risida. Bu holatda bunday qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran 5 (besh) ish kuni ichida sug'urta qildiruvchiga, rad etishning asoslantirilgan sabablarini ko'rsatgan holda, yozma xabarnoma yo'naltiriladi.

8.4.2. Sug'urta tovonini naqd pulsiz hisob-kitob yo'li bilan quyidagilarga to'lanadi:

a) sug'urtalovchi bilan xizmat ko'rsatish shartnomasiga ega bo'lgan servis markaziga — sug'urtalangan mol-mulkni tiklash (ta'mirlash) to'lov hisobiga;

b) sug'urtalovchining tanloviga ko'ra elektron va maishiy texnika yetkazib beruvchisiga (ishlab chiqaruvchisiga) — yo'qotilgan (nobud bo'lgan) sug'urtalangan mol-mulk o'rniga yangi elektron va maishiy texnikani xarid qilish to'lovi hisobiga.

8.5. Sug'urta to'lovi Sug'urtalovchi tomonidan tuzilgan sug'urta hodisasi dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi.

8.6. Agar ta'mirlangan mobil telefonning IMEI raqami sug'urtalangan mobil telefonning IMEI raqamiga mos kelmasa, sug'urta to'lovi amalga oshirilmaydi va Sug'urtalanuvchi ta'mirlash (tiklash) xarajatlarini mustaqil ravishda qoplaydi.

8.7. Agar Sug'urtalanuvchi yoki Naf oluvchi sug'urta hodisasi natijasida yetkazilgan zarar uchun uchinchi shaxslardan tovon olgan bo'lsa, Sug'urtalovchi uchinchi shaxslardan olingan summa va to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta to'lovi o'rtasidagi farqni to'laydi.

8.8. Agar zarar to'liq qoplangan bo'lsa va/yoki zarar yetkazgan shaxs tomonidan qoplanayotgan bo'lsa, Sug'urtalanuvchi/Naf oluvchi sug'urta to'loviga bo'lgan huquqini yo'qotadi.

8.9. Agar sug'urta hodisasi bo'yicha jinoyat ishi, fuqarolik ishi yoki ma'muriy ish qo'zg'atilgan bo'lsa, Sug'urtalovchi vakolatli organlarning tegishli qarori qabul qilingunga qadar to'lov masalasini kechiktirishga haqli.

8.10. Sug'urta hodisasi yuz berganini hamda yetkazilgan zararlarni isbotlash majburiyati Sug'urtalanuvchi/Naf oluvchi zimmasida bo'ladi.

9-BO'LIM. TOMONLAR JAVOBGARLIGI

9.1. Zimmalariga olingan o'z majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

9.2. Tomonlar, agar ular bu holning oldindan ko'rishi yoki oqilona choralardan oldini olishi mumkin bo'lmagan favqulodda xarakterdagi voqealar natijasida sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) tuzilganidan keyin yuz bergan, engib bo'lmas kuchdagi holatlar (fors-mazhor) yuzaga kelganligini isbotlay olsa va o'z majburiyatlarini tegishli bajarish yuzasidan ularga bog'liq bo'lgan va mumkin bo'lgan barcha choralarni ko'rgan bo'lsa, sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmasligi yoki tegishli bajarish uchun javobgar bo'lmaydi. Tomonlar bir-birini fors-mazhor holatlar yuzaga kelganligi haqida ularning yuzaga kelishi paytdan boshlab uch ish kuni ichida xabardor etishi shart.

9.3. Tomonlar, O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 23 noyabrda O'RQ-730-sonli "Sug'urta faoliyati to'g'risida" Qonunning 14-moddasi va O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 933-moddasiga muvofiq, mazkur Qoidalarga bo'yicha munosabatlar munosabati bilan ularga oshkor bo'lib qolgan axborotning maxfiyligini ta'minlash va uni oshkor etilishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha javobgarlikni oladi.

9.4. Sug'urta qildiruvchi/naf oluvchi hamma foydalanishi mumkin bo'lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda taqdim etgan ma'lumotlar bo'yicha sug'urtalovchi javobgarlikni olmaydi.

9.5. Sug'urta qildiruvchi/naf oluvchi sug'urta mukofotini to'lab, sug'urtalovchiga, sug'urtalovchi tomonidan sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) shartlarini bajarilishi uchun, shuningdek qonunga zid bo'lmagan boshqa maqsadlar yo'lida Sug'urta qildiruvchi/naf oluvchining har qanday shaxsiy ma'lumotlaridan ishlov berishga va foydalanishga roziligini bildiradi. Har qanday axborotlarga ishlov berish axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yoki ularsiz amalga oshiriladi, shu jumladan sug'urta shartnomasi (sug'urta polisini) tuzish va bajarish munosabati bilan sug'urtalovchiga taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo'q qilish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish.

10-BO'LIM. BOSHQA SHARTLAR

10.1. Elektron qurilmalar va maishiy texnikani sug'urtalash polisining boshqa shartlari "MY-INSURANCE" AJ Sug'urtalovchining electron qurilmalar va maishiy texnikani sug'urtalash Qoidalari bilan belgilanadi.

10.2. O'z zimmasiga olingan majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

10.3. Polis va ushbu Ofertada nazarda tutilgan masalalar bo'yicha yoki ular bilan bog'liq holda, jumladan ularning bajarilishi va buzilishi bilan bog'liq nizolar, talablar yoki kelishmovchiliklar yuzaga kelganda, tomonlar ularni muzokaralar yo'li bilan hal etish choralarini ko'radilar.

10.4. Agar tomonlar muzokaralar orqali tinch yo'l bilan kelishuvga erisha olmasalar, polis yoki u bilan bog'liq holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yoki yuzaga kelgan barcha nizolar, kelishmovchiliklar, talablar yoki da'volar, jumladan uning tuzilishi, o'zgartirilishi, bajarilishi, buzilishi, bekor qilinishi, to'xtatilishi, haqiqiy emasligi, tuzilmaganligi (to'liq va/yoki qisman) bilan bog'liq masalalar Sug'urtalovchi ro'yxatdan o'tgan joy bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq yurisdiksiya va sudga tegishlilik qoidalariga asosan ko'rib chiqiladi.

10.5. Sug'urta shartnoma (sug'urta polisi) bo'yicha huquq va majburiyatlar tomonlarning yozma rozilgisiz uchinchi shaxslarga o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi..

10.6. Mazkur Qoidalarda ko'rsatib o'tilmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi..

